

TOSHKENT VILOYATI KATTA CHIMYON TOG'I HUDUDIDA TULIPA BIFLOFORMIS VVED POPULYATSIYALARINING TARQALISHI

D.A. Abdullayev¹,
J.J. Jo'raqul o'g'li¹,
M.D. Turgunov¹,
G.Z. Meyliyeva²

¹O'zR FA Botanika instituti huzuridagi akademik F.N. Rusanov nomidagi Toshkent botanika bog'I, Tabiiy flora o'simliklari introduksiyasi laboratoriyasi kichik ilmi xodimlari

²Qarshi Davlat Universiteti, Biologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada Chotqol tizmasi, katta Chimyon hududida tarqalgan *Tulipa bifloriformis* Vved. turining tarqalish koordinatalari, populyatsiyadagi generativ va yuvenil o'simliklar miqdori haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Tulipa* L., *T. bifloriformis*, generativ, yuvenil, populyatsiya, lolalar

DISTRIBUTION OF TULIPA BIFLOFORMIS VVED POPULATIONS IN THE TERRITORY OF THE LARGE CHIMYAN MOUNTAIN OF TASHKENT REGION

D.A. Abdullayev¹,
J.J. Jorakul o'g'li¹,
M.D. Turgunov¹,
G.Z. Meyliyeva²

¹Academician of the Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan F.N. Tashkent Botanical Garden named after Rusanov, Junior Researchers of the Laboratory of Introduction of Natural Flora

²Karshi State University, 2nd year master's degree in Biology

Abstract: In the article *Tulipa bifloriformis* Vved, distributed in the Chatkal ridge, large Chimyan region. the distribution coordinates of the species, the amount of generative and juvenile plants in the population.

Keywords: *Tulipa* L., *T. bifloriformis*, generative, juvenile, population, tulips

O'rta Osiyo lolalarning – *Tulipa* L. turkumining kelib chiqishi markazi va turkumlarning turli tumanligi eng yuqori bo'lgan xudud hisoblanadi. Bu yerda lolalar turlari hosil bo'lishining tarixiy tarkib topgan to'rtta o'choqlari mavjudligi aniqlangan. Ulardan biri O'rta Osiyoning cho'llarida va yarim cho'llarida, boshqasi baland tog'larda joylashgan. Uchinchi o'chog' deb Pomir-Oloy tog'lari tizimi topilgan. To'rtinchisi esa G'arbiy Tyan-Shanning adirlari va tog'lariga to'g'ri kelib o'ziga xosligi bilan ajralib turadi [1]. O'rta Osiyoda lolalarning 63 turi o'sadi. Bu turlar ichida soxta qo'shgul lola (*Tulipa bifloriformis* Vved) aloxida etiborga molik tur hisoblanadi.

Lola turlarini o'rganishga botanik olim, biologiya fanlari nomzodi A.I. Vvedenskiy [2] ulkan hissa qo'shgan. U lolalarni 12 ta yangi turini aniqlagan va *Tulipa* L. turkumining dunyoda eng mashhur bo'lgan tizimlaridan birini ishlab chiqqan [1]. Bundan tashqari O'rta Osiyo lolalarni o'rganishda prof Z.P. Bachantseva [3], b.f.n A.X. Sharipov [4] prof K.Sh. Tojiboyev [5], kabi olimlar ulkan hissa qo'shishgan.

Ayni paytda *Tulipa* turkumining O'zbekiston florasida 34 turi ro'yxatga olingan [8]. *Tulipa bifloriformis* Vved bo'yi 15-25 sm. Dumaloq yoki tuxumsimon piyozining diametri 2 sm, deyarli piyoziga teng keladigan tangachali. Barglari ikkita, orasi ochiq joylashgan, tasmasimon yoki qalami-nashtarsimon, quyidagisining uzunligi 20-25 sm va eni 1,5-2,5 sm. Guli 1-8 ta, xushbo'y hidli, oq, tubi sariq. Changchi ipi sariq, kengaygan asopsi uzun tukli halqa bilan o'ralgan, changdoni ko'pincha binafsha rang, kamdan-kam sariq. Dumaloq, ko'pincha cho'ziqroq ko'sagining uzunligi 4,7 sm va eni 1,7 sm gacha bo'ladi. Urug'i to'q jigarrang, uzunligi 0,6sm va eni 0,5 sm gacha yetadi. Mart-arelda gullaydi, may-iyunda mevalaydi. Tog' etagidan tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan joylarning soz tuproqli va toshloq yonbag'irlarida o'sadi. Toshkent, Namangan viloyatlari (G'arbiy Tyan-Shanning barcha tog' tizmalari) da o'sadi [1].

G'arbiy Tyan-Shan okrug g'arbdan Toshkent-Mirzacho'l okrugi bilan o'ralgan, shimoldan, sharqdan va janubdan uning chegarasi shartli ravishda O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan bo'lgan ma'muriy chegarasiga to'g'ri keladi. Bu chegara shimoli-g'arbda Qorjantog', shimolda Talas Olatovi, sharqda Pskom tog'larining o'ng qismidan janubda esa Qurama, Mo'g'ultog' tog'larining suvayirg'ich qismlari orqali o'tadi [6]. Katta Chimyon tog'i - Toshkent viloyatidagi Chotqol tizmasining tarkibiga kiruvchi ulkan gumbazsimon massiv. Eng baland joyi — Katta Chimyon cho'qqisi (3309 m). Chimyonsoy vodiysini janubidan o'rab turadi. Paleozoy orogenetik jarayonida burmalanib granit, granodiorit, diorit, granit-porfir, kvarsli porfir, siyeni, siyeniqli diorit, gabbro kabi intruziv jinslar va ohaktosh hamda qumtoshlardan tuzilgan. Relyefi kuchli darajada parchalangan. Yon bag'irlar qiyaligi o'rtacha 25—35°, ba'zi joylarida 45° va undan ortiq. Janubi-g'arbdan shimoliy-sharqqa tomon cho'zilgan [7].



1- rasm Katta Chimyon tog'i.

2-rasm. *T. bifloriformis* Vved

Afsuski, o'tgan asr oxiriga kelib antropogen omillar ta'sirining kuchayishi natijasida ko'plab turlar arealining qisqarib ketishi jiddiy muammolardan biriga aylanib qolmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida - lola piyozlari va gullagan o'simliklarning betartib terib olinishi, tur areallarida chorva mollarining boqilishi, atrof-muhit degradatsiyasini sanab o'tishimiz mumkin. Floramizda tarqalgan lola turkumiga mansub noyob o'simliklarimizni saqlab qolish va muhofaza qilish maqsadida, ularni populyatsiyalari keng tarqalgan hududlar nazorat ostiga olinmoqda. Tabiiy flora ziyor yetkazmagan xolatda o'simliklar kolleksiyalarini yaratishda Botanika bog'larida turli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

T. bifloriformis Vved. turning tarqalish koordinatalari, populyatsiyadagi generativ va yuvenil o'simliklar miqdori

1-jadval

№	Umu miy soni	Gener ativ o'siml iklar soni	%	Yuvenil o'simlikl ar soni	%	JPS kordinata		Dengiz sathidan balandli gi
						N	E	
1	44	30	68,18	14	31,82	41,519021	70,025542	
2	140	83	59,29	57	40,71	41,518992	70,025428	
3	160	156	97,50	4	2,50	41,519601	70,024106	
4	19	12	63,16	7	36,84	41,519703	70,023958	
5	137	88	64,23	39	28,47	41,519725	70,023816	
6	104	68	65,38	36	34,62	41,520170	70,023324	
7	119	76	63,87	43	36,13	41,523156	70,021314	
8	77	61	79,22	16	20,78	41,521076	70,021434	
9	90	68	75,56	22	24,44	41,521080	70,021450	
10	85	54	63,53	31	36,47	41,522255	70,021011	
M	97,5	69,6	70,0	26,9	29,3			
m	13,92	12,13	3,61	5,42	3,55			

Chotqol tizmasining janubiy-g'arbiy qismidagi katta Chimyon tog'i hududida soxta qo'sh gul lolasining zich joylashgan populyatsiyasi aniqlandi. Bu hududning har 10 m² qismida lolalar o'rtacha 97,5 ± 13,92 miqdorda

o'sishi aniqlandi. Hududda mavjud lolalarning $69,6 \pm 12,3$ % qismi generativ holatda, qolgan $26,9 \pm 5,24$ % qismi esa yuvenil holatda ekanligi aniqlandi. Bu holatning sababi sifatida hududda Chimyon dam olish maskanining tashkil etilganligidir. Hudud qo'riqlanganligi sababli chorva mollarining boqilishi kuzatilmaydi. Ammo olingan natijalarda eng past ko'rsatkich, 19 ta lola olingan hudud insonlar asosiy dam oladigan hududda joylashgan. Lolalar ko'p o'sib turgan joylar esa odamlar nisbatan kam boradigan yuqoriroq qisimlarda joylashgan. Buning sababi dam oluvchilar o'simliklarni ko'p miqdorda uzib nobut qilishida ekanligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Tojibaev K, Kadirov R (2010) Tulips of Uzbekistan. Tashkent: Sharq.
2. Vvedensky AI (1941) The genus *Tulipa* L. In: Flora Uzbekistanica. Tashkent, The Publishing house of the Academy of Sciences UzSSR, 1: 502-520.
3. Botschantzeva ZP (1982) Tulips: taxonomy, morphology, cytology, phytogeography and physiology. CRC Press, Rotterdam
4. Sharipov AH, Pechenitsyn VP, Ashurmetov OA (2002) Wild tulips of Central Asia. In: Tilip and Man. Almaty. Proceedings of the symposium: 37–42.
5. KomiljonTojibaev, Farkhod Karimov, Byoung-Un Oh, Seung Hwan Oh, Chang-gee Jang (2018) A checklist of the geophytes of Fergana Valley, Middle Asia – Monocotyledonous plant and biogeographical analysis. Journal of Asia-Pacific Biodiversity 11 (3): 431–441. <https://doi.org/10.1016/j.japb.2018.06.003>
6. <http://www.hozir.org/buxoro-davlat-universiteti-ozbekiston-tabiiy-geografiyasi-fani.html?page=139>
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Katta_Chimyon_tog%CA%BBi